

JAMIYATDA IJTIMOIIY NORMALARNI TAKOMILLASHTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Berdikulova Surayyo Aslamovna, dotsent v.b.

Xudaynazarov Samad Xudayberdiyevich, dotsent

O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: Jamiyat barqaror rivojida, millatlararo munosabatlarda, o‘zaro tinch yashash, dinlararo bag‘rikenglikda ijtimoiy norma muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada jamiyatda ijtimoiy normalarni takomillashtirishda milliy qadriyatlarining o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, ijtimoiy norma, qadriyat, milliy qadriyat, madaniyat, ta’lim – tarbiya, oila, milliy taraqqiyot.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ В ОБЩЕСТВЕ

Бердикулова Сурайё Асламовна, доцент и.о.

Худайназаров Самад Худайбердиевич, доцент

Национальный университет Узбекистана

Аннотация: Социальная норма важна для устойчивого развития общества, межнациональных отношений, взаимного мирного сосуществования, межконфессиональной терпимости. В данной статье освещается роль национальных ценностей в совершенствовании социальных норм в обществе.

Ключевые слова: общество, социальная норма, ценность, национальная ценность, культура, образование, семья, национальное развитие.

THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN IMPROVING SOCIAL NORMS IN SOCIETY

Berdikulova Surayyo Aslamovna, associate professor

Xudaynazarov Samad Xudayberdiyevich, associate professor

National University of Uzbekistan

Annotation: In the stable development of society, in interethnic relations, in mutual peaceful coexistence, in interreligious tolerance, the social norm is

important. This article highlights the role of national values in improving social norms in society.

Keywords: society, social norm, value, national value, Culture, Education, Family, National Development.

KIRISH.

Xalqaro munosabatlarda o'zaro hurmat va madaniy yondashuv davlatlar tinch-totuvligi hamda barqaror rivojlanishning muhim omili ekanligini ko'rsatib, ko'p millatli jamiyatning madaniy xilma-xilligi sharoitida milliy madaniyatni asrab-avaylash va yanada taraqqiy ettirishning yangi usul-vositalari va mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy normani hayotga tadbiq etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kishilik jamiyati – qadriyatlar olamidan iboratdir. Qadriyat inson ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda uning xarakteri, dunyoqarashi, e'tiqodi, ishonchi, intilish darajasini belgilaydigan qiymat, o'lchovdir.

Qadriyatlarni belgilovchi asosiy mezon va uni boshqa xalqlar bilan integratsiyalashish jarayoni uni belgilovchi mezonlar ko'rsatkichlar va omillar bilan bog'liq. Shuning uchun ham qadriyatlar tizimida inson hayoti uning maqsadlariga xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy mohiyatning mavjudligi turli xalqlar qadriyatlarini mazmun va mohiyati jihatidan bir – biriga yaqinligini ko'rsatadi va milliy qadriyatlarni boshqa xalqlar qadriyatlari bilan integratsiyasi uchun imkoniyat yaratib beradi.

MATERIAL VA METODLAR.

Har bir taraqqiyot davrida sodir bo'lgan jarayon, voqea – hodisalarni o'rganish, mazmun – mohiyatini chuqur tahlil qilish, anglash o'sha davrdagi jarayonning mohiyati, ko'lami inson va jamiyat hayotiga ta'sirini aniqlash bilan birga bugungi kun taraqqiyoti uchun muayyan tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi. Har qanday tadqiqot ishini alohida va umumiy kategoriyalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga kirishishdan oldin uning alohida o'ziga xos xususiyatlarini chuqur ilmiy tahlil qilish va ushbu tushunchalarni boshqa

tushunchalar bilan dialektik bog‘liqligini aniqlash ishning yakunida muammoning to‘g‘ri ilmiy yechimini topishga imkon yaratadi.

«Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushunilmog‘i lozim. Tabiat va jamiyat hodisalari inson faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyat sirasiga kiritiladi»[1]. Olamga qadriyatli munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetishi jarayonining tarkibiy qismidir. Kishi kamolot sari borar ekan o‘zini anglaydi, umr, vaqt, davr va boshqalarning haqiqiy qadrini tushunib yetib boradi. Bu foniyl dunyoning o‘tkinchiligi, umrning mazmuni, yashashning maqsadi, odamni dunyoga kelib bajaradigan, qila oladigan amallarini, olamning abadiyligi qarshisidagi lahzalar qadriga yetishni o‘rgana boradi. Bu esa mazkur kishida aksiologik munosabat shakllanishining shaxsiyl jarayonini anglatadi.

Rus olimi V. P. Tugarinov qadriyat tushunchasini shaxs manfaatlari va maqsadlariga bog‘lab o‘rgangan. Uning fikricha: «bizga (jamiyat yoki ma‘lum bir guruh, sinf) kerak bo‘lgan narsani foydali, qadriyat yoki yaxshilik deb ataymiz»[2]. U qadriyatlarni inson ehtiyojidan kelib chiqishini ta‘kidlaydi va qadriyatlarni baholash xususiyatlarini ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarning birligi deb hisoblaydi. G. P. Vijletsovning fikricha, qadriyat sub‘ektning Xudo, tabiat, jamiyat, inson bilan munosabatlarida, «insonlararo va bundan tashqari, shaxslararo munosabatlarni amalga oshirish»da namoyon bo‘ladi[3]. Qadriyatlar sohasidagi o‘zgarishlar ijtimoiyl taraqqiyotga bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlikning rivojlanish bosqichlari, sivilizatsiyalar hayotining muayyan davrlarida o‘ziga xos ahamiyatga ega. Qadriyatlar jamiyat va inson faoliyatiga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadi. Ba‘zi hollarda qadriyatlarning regulyativ(boshqaruvchanlik) funksiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelgan va ko‘pchilik manfaatlarini o‘zida ifodalaydigan moddiy va ma‘naviy tushunchalarnigina «milliy qadriyat» sifatida e‘tirof etishimiz mumkin. Milliy qadriyatlar milliy makonda shakllanadi,

rang-barang tarzda namoyon bo‘ladi, millatga mansub kishilarning ongiga ta’sir qiladi, ular uchun ma’naviy mezonlar rolini o‘taydi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida doimo yangilanib, avloddan-avlodga o‘tib boradi. «Baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o‘z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o‘ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda bunday paytda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o‘zga madaniyatga tegishli bo‘lsa, o‘zimiz mansub bo‘lgan madaniyat ruhimizga singdirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo‘ladi va butun bo‘y-basti bilan o‘zligini namoyon qiladi. Madaniyatning baholash funksiyasi tufayli tanlanish sodir bo‘ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi ayniylik, o‘ziga xoslik, ayni paytda, davomiylik, vorislik ta’minlanadi»[4].

Kengroq qilib aytganda, «milliy qadriyatlar:

- kishilarning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi, rang-barang tarzda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi, kishilarning ongiga, hayot tarziga o‘ziga xos tarzda ta’sir qiladi;

- kishilarning o‘zaro munosabatlarida, ijtimoiy faoliyatlarida ko‘zga tashlanib turadi hamda ana shu munosabat, faoliyat, maqsad, ehtiyoj va intilishlar uchun ma’naviy asos bo‘ladi;

- moddiy, ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda muayyan natija sifatida yuzaga kelishi, kishilar uchun zaruriyat sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi, ularga foyda keltirishi ham mumkin;

- ijtimoiy rivojlanish jarayonida o‘zgarib, takomillashib, rang-barang jihatlar avloddan-avlodga o‘tadi, meros qoladi»[5].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Umuminsoniy qadriyatlar tarixiy sinovlardan o‘tib taraqqiyot davomida takomillashib borib, hayotning mazmunini anglash, o‘zligini tanish, manaviy mezonlar asosida yashashni o‘rgatadi. Yoshlar ongi va qalbiga singdirilayotgan milliy g‘oya umuminsoniy qadriyatga tayanishi lozim. Yosh-avlod ongi va qalbiga milliy-umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda, diniy bilimlarni ham o‘rganish;

- urf-odat, an'ana va marosimlarni yangi qadriyatlar bilan boyitish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks etgan, yoshlarda fidoiylilikni targ'ib qiluvchi asarlar, kinofilmlar, teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar, turli ma'naviy tadbirlar, Internet saytlarda maqolalar nashr etish;
- muhim islohotlarda ma'naviy merosimizga, tarixiy tajribaga murojaat etish;
- oila-ta'lim muassasasi-mahalla tizimi bo'yicha targ'ibot-tashfiqot ishlarini olib borish;
- inson – eng oliy qadriyat ekanligini anglash;
- oilalar va o'quv yurtlari hamkorligida mahallalarda milliy qadriyatlar ahamiyatini tahlil qilib beradigan tadbirlar o'tkazish;
- milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim va tarbiya uyg'unligini amaliyotda joriy etish va boshqalar.

Shakllanadigan qadriyatlar tizimi, qadriyatlarning biror shakli yoki yangi jihatining hayot talablariga mos kelishi yoki mos kelmasligini amaliyot ko'rsatadi. Vujudga kelgan navqironlik tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos oqimiga mos bo'lsa, amaldagi qadriyatlar qatorida yashab qoladi. Agar u davr o'tishi bilan, jamiyat rivoji talabiga javob berolmay qolsa, asta-sekin tarix sahifasidan tushib, uning varaqlari bilan birga yopilib ketadi. O'tmishga aylangan, o'rnini boshqa ijobiy yangilikka bo'shatib bergan qadriyatning ba'zi tomonlari izsiz yo'qolib ketmasdan, ayrim sifat va xususiyatlari meros qoladi[6].

«Qadriyatlar hamisha muayyan fazilatlar tarzida namoyon bo'lib, kishilarning voqelikka bo'lgan munosabatlari mazmunini ifoda etadi hamda ularning fe'l – atvorlari, sa'y-harakatlari, yo'nalishlarini belgilaydi»[7]. Qadriyatlar axloqiy qoida, axloqiy me'yori va axloqiy tamoyillarni o'zida namoyon etib, adolatparvarlik, haqiqatgo'ylik, ezgulik, tinchlik, vanatparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar, o'z navbatida burch, ma'suliyat, vijdon, insof, andisha, or-nomus kabi axloqiy tushunchalarni ham o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda eng rivojlangan davlatlar ham milliy madaniyat, milliy qadriyat kabi tushunchalar o'z mohiyatini yo'qotayotganligidan tashvishga tushmoqda. Xususan, ko'zga ko'ringan olimlardan biri S. Xantington o'zining

«G'arbning halokati» kitobida AQShda vujudga kelgan vaziyatni chuqur tahlil etib, G'arb dunyosining tanazzulini, avvalo, madaniyatning yemirilayotgani, azaliy urf-odatlarining yo'qolib borayotgani, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan qadriyatlarning toptalayotgani bilan izohlaydi[8].

Shuningdek, uning tarkibida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini targ'ib etuvchi kitoblar, filmlar, qo'shiqlar, axborotlar, reklamalar, e'lonlar vujudga keldi. Axloqiy buzqlikni, zo'ravonlikni targ'ib etishga ruju qo'yish g'arb mamlakatlarida oila degan muqaddas qo'rg'onga, azaliy qadriyat va an'analarga jiddiy putur yetkazmoqda. Eurostat statistik ma'lumotlariga ko'ra, Britaniyada bolalarning 50 foizga yaqini nikohsiz tug'ilmoqda. Agar shu jarayon davom etsa, kelgusi yillar ichida britaniyalik bolalarning yarmigina ota-ona tarbiyasini oladi. Kishilik jamiyatining asosi bo'lgan oilani keraksiz matodek uloqtirib tashlayotgan jamiyatlarning kelajagini bundan ortiq tasavvur qilish ham qiyin. Shuningdek, ma'lum bo'lishicha, rivojlangan davlatlarda jinoyatga qo'l urib, qamoqqa tushgan voyaga yetmaganlarning aksariyati buzilgan oila farzandlari ekan. Bu holdan bugunga kelib G'arb dunyosining o'zi ham tashvishga tushmoqda.

MUHOKAMA.

G'arbning ayrim telekanallarida avj olgan fahsh, jinoyat, tajovuz, vahshiylikni namoyish etuvchi film va ko'rsatuvlardan ularning o'zi ham norozi ekanini internet forumlaridan kuzatsa bo'ladi. Forum ishtirokchilaridan birining yozishicha, «Tan olamizmi, yo'qmi, biroq televideniye insonlar xatti-harakatini majburiy programmashtirish qudratiga ega. Jamiyatimizda avj olayotgan jinoyatchilik ko'lami, ma'naviy inqiroz va axloqsizlik shak-shubhasiz televideniya ta'sirida sodir bo'lmoqda». Shunday bo'lsa-da, televideniya katta qism auditoriyani o'z ta'sirida doimo ushlab turish qudratiga ega bo'lgan vositalardan biridir. Bugun telemaniya kasallik sifatida tadqiq etilib, xaftasiga 38,5 soat televizor qarshisida o'tirgan inson bu dardga chalingan sanalar ekan. Bu kuniga 5,5 soat demakdir. Olimlar telemanlarning aksariyati ayollar va yoshlar ekanini ta'kidlaydilar.

Milliy qadriyatlar integratsiya jarayonlarida o'zini saqlab qolishi murakkab jarayon bo'lib, qadriyatlar oldiga muhim talablarni qo'yadi. Bu talablar qadriyatlarni tarix sinoviga bardosh bera olishi, yangiliklarni qabul qilishi, zamon o'zgarishiga javob berishi hamda taraqqiyotga xizmat qilishi bilan bog'liq holatlardir. Milliy qadriyatlarning integratsiyasi turli xalqlar hayotida uning o'rnini va ahamiyatini ifoda eta olishi bilan bog'liq bo'lib, unda qadriyatlarning o'ziga xos ijobiy tomonlarini boshqa xalqlar ham hisobga oladi va unga amal qilishga harakat qilishi mumkin.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalqi milliy qadriyatlardagi o'ziga xos umuminsoniy mohiyatni anglash va uni amalda qo'llashda hozirgi zamon global yutuqlari o'zining ta'sir ko'rsatish darajasining yuqoriligi bilan o'ziga xos xususiyat kasb etmoqda. Ayrimlar milliy qadriyatlardan uzoqlashishni, milliy qadriyatlarga ko'proq bog'lanib qolmaslikni, bunday yondashish go'yoki ularning shaxsiy erkinligi va manfaatlariga zid holat sifatida qaralayotganligi ba'zi yoshlarni milliy qadriyatlardan uzoqlashishga undamoqda. Aslida milliy qadriyatlardagi umuminsoniy fazilatlarni chuqur anglash va qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotidagi ta'sirini hisobga olish bugun milliy qadriyatlar integratsiyalashish jarayonini to'g'ri tushunishga va hayotga to'g'ri yondashishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B.13.
2. Тугаринов В.П. Марксистская философия и проблема ценности // Проблема ценности в философии. -М.,1966. -С.15.
3. Выжлецов Г.П. Проблема ценности в современной аксиологии и экономике // Проблемы современной экономики. –М., 2005. -№ 3-4. –С.15-16.
4. Shermuhamedov S., Ochildiyeu A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Farg'ona, 2000. -B.37
5. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. -B.40.

6. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. -B.71.

7. Jo‘rayev N. Yangilanishlar konsepsiyasi yaratilishi, evolyutsiyasi va amaliyoti. –Toshkent: Ma’naviyat, 2002. –B.44.

8. Bahodir Zokir. G‘arb tamadduni:inqiroz alomatlari // Tafakkur. –Toshkent, 2007. –№2. –B.12.

9. Фарходжонова Н. Ф. ГЛОБАЛЛАШИШ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ МАДАНИЯТНИНГ ИНТЕГРАЦИЯЛАШИШИ //ЖУРНАЛИ. – С. 239.

10. Berdikulova S. A. SOCIAL NORMS IN THE SYSTEM OF REFERENCE POINTS OF HUMAN PRACTICE //Теория и практика современной науки. – 2022. – №. 5 (83). – С. 6-9.